# ASOSIY VOSITALARNI TURKUMLANISHI VA BAHOLASH TARTIBI

**O‘.Baytanov**
**Jizzax politexnika instituti**
**Iqtisodiyot va menejment kafedrasi o‘qituvchisi**
**M.Xudoyberdiyeva**
**Kibersport fakulteti talabasi**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada asosiy vositalarni nima uchun turkumlanishi, asosiy vositalarni qanday mezonlar bo‘yicha turga bo’linishi, hamda baholash tartibi qandayligi, asosiy vositalarni qiymatlari va asosiy vositalarning taxminiy foydali hayoti haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Asosiy vositalar, asosiy vositalarni turkumlanishi, asosiy vositalarni baholash tartibi, asosiy vositalarni turlari, asosiy vositalarni boshlang’ich qiymati, asosiy vositalarni qayta hisoblash.

**Аннотация**

В данной статье рассмотрено, почему классифицируются основные средства, по каким критериям основные средства делятся на виды и каков порядок оценки, стоимости основных средств и расчетные сроки полезного использования основных средств.

**Ключевые слова:** Основные средства, классификация основных средств, порядок оценки основных средств, виды основных средств, первоначальная стоимость основных средств, пересчет основных средств.

**Annotation**

This article discusses why fixed assets are classified, what criteria are used to classify fixed assets, and what is the evaluation procedure, fixed asset values, and estimated useful lives of fixed assets.

**Key words:** Fixed assets, classification of fixed assets, procedure of valuation of fixed assets, types of fixed assets, initial value of fixed assets, recalculation of fixed assets.

5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) da asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida faoliyatni yuritishda mahsulotda ishlab chiqarish ishlarini bajarish va xizmatlarni ko'rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar”.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi.

a) 1 yildan ortiq xizmati muddati.

b) Bir-birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqqini haqqi miqdorining 50 barobaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

c) Ijaraga berilishi mumkin bo’lgan aktivlar.

Asosiy vositalar ma'lum tasniflash mezonlari bo'yicha guruhlanadi. Ular quyidagicha:

1. Binolar.
2. Inshootlar.
3. Uzatish qurilmalari.
4. Mashina va uskunalar.
5. Kompyuter texnikasi va qurilmalari.
6. Transport vositalar va instrumentlar.
7. Ishlab chiqarish uskunalari va aksesuarlari.
8. Xo'jalik inventarlari.
9. Ishchi va mahsuldor hayvonlar .
10. Ko‘p yillik o‘simliklar.
11. Yerdan obodonlashtirish uchun kapital xarajatlar .
12. Boshqa asosiy vositalar.

Binolar, inshootlar va o'zatgish moslamalariga quyidagilar kiradi:

ishlab chiqarish, ma'muriy, ijtimoiy-maishiy, uy joy binolari (inventar obyekt bo'lib har bir

xususiy xo'jalik ahamiyatiga ega alohida turuvshi bino va qurilma hisoblanadi). Bino va qurilmalar tarkibiga normal ekspluatatsiya uchun lozim bo'lgan barcha kommunikatsiyalar kiradi (isitish, yoritish, ventilyatsiya, suv va gaz bilan ta'minlash, ichki telefonlar va kompyuter tarmoqlari, lift, yong'in va qo'riqlash tizimlari).

Vazifasi mehnat predmeti o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan u yoki boshqa texnik vazifalarini bajarish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonini amalga oshurish yoki turli noishlab chiqarish vazifalarini amalga oshirish uchun kerakli sharoitlarni tashkillashtish bo'lgan injener-qurilish obyektlariga tegishli inshootlar (avtomobil yo'llan, ko'priklar, estakadalar, suv omborları, neft va gaz quduqlari, shaxtalar va boshqalar).

Uzatish moslamalari energiya va axborotlari uzatish uskunalar, bunga elektr uzatish tizimlari, issiqlik o'tkazgichilar, turli vazifali quvur o'tkazgichlar, radiotele liniyaları, aloqa kabel liniyalari, aloqa tizimining ixtisoslashgan inshootlari va boshqalar.

Mashina va uskunalar bu-kuch mashinalari va uskunalar - atom reaktorlari, qozonxonalar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari, ichki yonish dvigatellari va boshqalar, ishchi mashinalar va uskunalar mehnat vositalariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa texnologik jihatdan ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan dastgohlar, apparatlar, agregatlar, o'lchash va sozlash asboblari, qurilmalar hamda laboratoriya uskunalari - tarozilar, dozatorlar, manomentilar, termostatlar, nozimlik nazorati uchun uskunalar, signalizatsiyalar, ilmiy-tadqot labaratoriyalari, seysmik stantsiya apparaturalari va boshqalar, boshqa mashinalar va uskunalar telefon stansiyalar uskunalari hamda oldingi guruhlarda hisobga olinmagan boshqa mashina va uskunalar.

Mebel va ofis asbob-uskunalari ishlab chiqarish va ma'muriy foydalanish uchun mo'ljallangan mebel va anjomlar (stollar, javonlar, mebel to'plamlari, kreslolar, temir sandiqlar va hokazolar), shuningdek ofis asbob-uskunalari (telefaks apparatlari, qog'oz kesuvshi mashinalar va boshqalar).

Kompyuter uskunalari va hisoblash texnikalari ma'lumotlarni o'zgartirish va saqlashga mo'ljallangan uskunalar (kompyuterlar, printerlar, skanerlar, modemlar va boshqa kompyuter uskunalari, shuningdek hisoblash texnikasi).

Transport vositalari odamlar va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan harakatlanuvchi vositalari temir yo'l, suv, avtomobil, havo, ishlab chiqarish va kommunal transportining harakatdagi tarkibi.

Ish hayvonlari va mahsuldor mollar ishchi kuchi sifatida foydalaniladigan mollar otlar, ho'kızlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ish hayvonlari (ot-arava transporti sifatida foydalaniladigan hayvonlarni hisobga olganda), shuningdek, mahsulot beradigan (tug'ilgan nasl, sut, jun va boshqalar) qoramollar, buqalar, nasldor biyalar (ishchi hayvonlardan tashqarı), sovliq qo'ylar va hokazo.

Ko'p yillik o'sumliklar ko'kalamzorlashtiruvchi, manzaraviy meva-rezavor daraxtlar va o'simliklar, butalar va boshqalar.

Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish bilan bog'liq kapital xarajatlar (shu jumladan, asosiy vositalar obyektlanni rekonsruksiya qilish va zamonaviylashtirish bo'yicha xarajatlar).

Boshqa asosiy vositalar yuqorida keltirilgan guruhlarga sanab o'tilmagan asosiy vositalar masalan kutubxona fondi.

Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish xususiyatiga ko'ra harakatdagi va harakatsiz (zaxirada yoki konservatsiyada bo'lish) asosiy vositalar, maqsadiga ko'ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (uy va kommunal va ijtimoiy-madaniy obyektlarning asosiy vositalari) mavjud.

Ishlab chiqarish asosiy fondiga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish maqsadida bino va inshootlar uzatuvchi qurilmalari dastgoh va mashinalar asbob-uskunalar transport vositalari kompyuter texnikasi asboblari va ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlar, ularni ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarda va ishlab chiqarish uchun bevosita ishtirok etadi.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari korxona mehnat jamoasining a'zolarining ijtimoiy va maishiy xizmatlari uchun mo'ljallangan asosiy vositalardir. Bularga korxonaning balanslar

ro'yxatga olingan turar-joy binolari, maishiy xizmatda obyektlari, ijtimoiy va madaniy obyektlar kiradi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalarini quyidagicha ajratish mumkin:

a) amaldagi (foydalanishdagi).

b) faoliyat ko'rsatilmayotgan (uch oydan ortiq muddatini konservatsiya qilingan).

v) zaxirada bo'lgan.

Asosiy vositalarni baholash. O'zbekiston Respublikasida BHMS № 5 da asosiy vositalar boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Boshlang'ich qiymat – bu aktivlarni sotib olish, qurish, ishlab chiqarish va boshqa yo'llar bilan kelib tushgan vaqtida shakllangan qiymati. Ushbu qiymat o'z ichiga aktivlarni sotib olishga, qurishga va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni oladi. Bepul kelib tushgan aktivlarning boshlang'ich qiymati komissiya tomonidan ekspert yo'li bilan topiladi. Shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek aktivni undan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlar.

Asosiy vositalarni qayta baholash- asosiy vositalarini tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlarini darajasida moslashish maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlash foydalanish sharoitlarning o'zgarishiga qarab tashqi omillar xususan inflyatsiyaning ta'siri asosiy vositalarini qayta tiklanishi va qayta tiklash qiymatiga ega bo'lishi mumkin.

Joriy qiymat — ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

Qoldiq (balans) qiymat — jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati.

Tugatish qiymati — asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi.

Asosiy vositalarning taxminiy foydali hayoti yillar davomida foydalanayotgan obyekt ishlash muddati. Bu ko'rsatkichni hisoblashda buxgalter quyidagi ma'lumotlarni hisobga olish kerak: 1) bunday aktivlar bilan to'langan boyliklar; 2) obyektiv joriy holatda; 3) uskunalarni ta'minlash va texnik xizmat ko'rsatish masalalari; 4) texnologiya va ishlab chiqarishning joriy holati; 5) mahalliy obu-havo sharoitlari.

**Xulosa.**

Asosiy vositalarni hisobga olish, rejalashtirishni to'g'ri tashkil qilishishning muhim sharti ularni ilmiy jihatdan turkumlash va baholash hisoblanadi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab ishlab chiqarishning asosiy vositalariga va ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan obeyktlarga bo'linadi. Asosiy vositalar dastlabki qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Asosiy vositalarning hisob qiymati deganda, ularni hisobotda va balansda aks ettiriladigan, yani balans qiymati tushuniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.A.Xasanov, A.A.Xoshimov, A.B.Muxametov , A.A.Abduvohidov; - T.:"Iqtisodiyot dunyosi", 2021 992 b.

2.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo'lida. - T. O'zbekiston, 1995.

3. Qodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. -T.: O'qituvchi, 1993.

4.Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

5.Umarova M., Ahmadjonov K., Eshboyev U. Buxgalteriya hisobi. -T.: 1999.

6.Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

7.Yuldashev S.Sh. Buxgalteriya hisobining chuqurlashtirilgan moduli. T.: 1998.

8.Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.

9.Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

10.Джаббарова Ю.А. «Основные тенденции на рынке книжной продукции в Республике Узбекистан.» журнал том 3 номер 5 ст 36-40.

11. Dilshod To'ychi o'g, K., Abdujalil o'g'li, Y. F., & Abdujalil o'g'li, A. B. (2023). Analysis of the Current State of the Bank Risk Management System. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(1), 60-64.

12. Ilhomovich, J. O. T. (2024). O'ZBEKISTONDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BASHORAT QILISHDA STATISTIK USULLARNI QO'LLASH. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 8(4), 205-210.